ekologik nazoratni kuchaytirish. Ushbu chora-tadbirlar Farg‘ona vodiysida ekologik xavfsiz, iqtisodiy samarali va ijtimoiy foydali turistik-rekreatsion tizimni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”.
2. 2019–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5611-son Farmoniga ilova.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida.
4. UN Tourism. Sustainable Development of Tourism. Rasmiy manba.
5. UNEP, World Tourism Organization. Making Tourism More Sustainable: A Guide for Policy Makers. Madrid: World Tourism Organization, 2005.
6. United Nations Department of Economic and Social Affairs. Sustainable Tourism. SDGs platformasi.
7. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi materiallari.
8. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi rasmiy materiallari.
9. Soliyev A.S. O‘zbekiston geografiyasi. Toshkent: Universitet, 2014.
10. Qayumov A.A., Safarov I. Geoekologiya asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
11. Nig‘matov A.N. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
12. Baratov P. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi. Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
13. Usmonov M.R. Turizm geografiyasi. Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
14. Mirzayev M.A., Aliyeva M.T. Turizm asoslari. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2011.
15. Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlari turizm boshqarmalari hamda statistik ma’lumotlari.

SIRDARYO VILOYATI TURIZM-REKREATSIYA INFRATUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Alimkulov Nusratulla Raxmonkulovich
Nizomiy nomidagi O’zbekiston milliy pedagogika universiteti
geografiya fanlar doktori (DSc), professor
Baratova Dilnoza Nuritdinovna
Guliston Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Sirdaryo viloyatining turizm-rekreatsiya infratuzilmasining hozirgi holati, mavjud tabiiy, rekreatsion va madaniy-tarixiy resurslardan foydalanish imkoniyatlari hamda sohani rivojlantirishdagi asosiy muammolar tahlil qilingan. Tadqiqot davomida viloyatdagi transport va yo‘l infratuzilmasi, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, mehmonxona va turistik xizmat ko‘rsatish obyektlari, ekologik infratuzilma, marketing hamda investitsiya imkoniyatlari o‘rganilgan. Shuningdek, Sirdaryo daryosi bo‘yi hududlari, agroturizm, ekoturizm va qisqa muddatli turizm yo‘nalishlarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Aniqlangan muammolar asosida turistik infratuzilmani kompleks rivojlantirish, xususiy investitsiyalarni jalb qilish, agro va ekoturizm klasterlarini shakllantirish hamda hududning turistik salohiyatini targ‘ib qilish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Sirdaryo viloyati, turizm-rekreatsiya, turistik infratuzilma, rekreatsion resurslar, ekoturizm, agroturizm, madaniy-tarixiy obyektlar, Sirdaryo daryosi, turistik salohiyat, yashil iqtisodiyot, investitsiya, turistik zonalashtirish, GAT.*

Kirish: Kishilarning yashash sharoiti yaxshilangan sari ularda dam olish va sayohat qilishga ehtiyoj oshishi, iqtisodiy-ijtimoiy holat yuqori bo’lgan sharoitda ularning sayohat qilish imkoniyati kengayib borishi yillar tajribasida isbotlangan. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda turizm va ichki turizmda shart-sharoitlarning yaratilib berilishi, mavjud ko’rsatkichlarni yanada oshiradi. Hozirda barcha aholi shaharlarda yashashga

intilayotgan bir paytda, yerlarning antropogen ta’sirlari muttasil oshib, sof tabiat ko’rinishi yo’qolib borayotgan davrda yashamoqdamiz. Insonlarning tabiatga uyg’un tarzda yaratilgani holda ularning barcha ehtiyojlari tabiat bilan bog’liq. Ushbu holatda insonlarni tabiiy sharoit va asrlar davomida shakllanib kelayotgan har bir davrga xos obyektlarni asrab avaylab ularni iqtisodiy foyda keltiradigan sohaga aylantirish ayni muddao, ya’ni ularni kelajak avlodlarni ham bahramand etish yo’llaridan biridir. Bunda turizm-rekreatsiya infratuzilmasi ularni yanada jozibador qilibgina qolmay ulardan bahramand etish uchun shart-sharoit ham yaratadi.

Rekreatsiya resurslari barcha hududlarda turli xil joylashgan bo‘lib, rekreatsiya tushunchasi - insonlar sog’ligini va mehnatga qobiliyatini dam olish obyektlarida qayta tiklashi, sayyohlik yo’li bilan tabiatning turli maskanlariga borishi, arxitektura va tarixiy yodgorliklarni borib ko’rishi nazarda tutiladi. Rekreatsiya sohalari bir qancha bo’lib, ularga kurort – sanatoriya va boshqa salomatlik obyektlarida sog’likni tiklash, sayyohlik yo’li bilan tabiatning go’zal manzaralariga (daryo, ko’l, o’rmon, tog’, g’orlar, sharshara va b.) borish, sport bilan shug’ullanish hamda noyob tarixiy va arxitektura yodgorliklari bilan tanishishlari kiradi. Turizm - rekreatsiya bir turi bo’lib, dam olish maqsadida hududiy harakatlanishni talab etadi.[2].

Jumladan, O’zbekiston tabiati rang-barang bo’lib, yilning barcha fasllari yaqqol ifodalanib quyoshning yorug’ kunlari bisyor. Tog’li hududlarda Toshkent, Jizzax, Qashqadaryo, Surhondaryo, Farg‘ona vodiysi viloyatlarida yoz-qish fasllarda ham kishilarning dam olish uchun shart-sharoitlar mavjud. Qashqadaryo, Ohangaron, Zarafshon va Sirdaryo daryolari bo’yi sohillari rekreatsiya resurslariga nisbatan boy bo’lib, hududlarda dam olish va ko’ngilochar maskanlarga aylantirish imkoniyatlari hozirda kengaytirilmoqda. Jumladan, mamlakatimizda eng yirik daryolardan biri Sirdaryo daryo bo’yi sohillarda tashkil etilayotgan ekoturizm va ko’ngilochar maskanlarning tashkil etilishi yillar davomida qarovsiz joylarni obod etib, iqtisodiy foyda keltiradigan hududlarga aylantirilishi turizm sohasidagi islohotlarning keng qamrovda olib borilayotganining isbotidir.

Sirdaryo viloyati turizm sohasida boshqa viloyatlardan nisbatan orqada ekanligini hisobga olib ushbu olib borilayotgan ishlar mavjud imkoniyatlardan yuqori ko’rsatkichlarda foydalanish, kelajakda barqaror rekratsion-turizmning rivojiga hissa qo’shadi. Ammo, bu sohada muammolar yetarlicha mavjud, ularni bartaraf etish viloyat iqtisodiy-ijtimoiy sohasida yaxshi ko’rsatkichlarga erishib, natijalari ijobiy bolishini ta’minlaydi. Mazkur maqolaning maqsadi — Sirdaryo viloyati turizm-rekreatsiya infratuzilmasini rivojlantirishdagi mavjud muammolarni aniqlash, ularning sabablarini tahlil qilish va rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi: So’nggi yillarda mamlakatimizda turizm sohasi boyicha olib borilayotgan ishlar statistik ko’rsatkichlari bilan yuqori darajada o’smoqda. Jumladan, O’zbekistonga 2026-yilning yanvar-avgust oylarida 9,1 mln nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurgan.Bu o’tgan yilning shu davriga nisbatan 1,6 mln nafarga yoki 21,1 % ga ko’p. Sayyohlarning eng katta qismi Qirg’iziston (2,5 mln kishi), Qozog’iston (2,2 mln kishi) va Tojikiston (2 mln kishi) davlatlari hissasiga to’g’ri keladi. Shuningdek, 9 102 729 nafar chet el fuqorosi turistik maqsadlarda O’zbekistonga tashrif buyurdi. [4] Ta’kidlab o’tish lozimki, viza jarayonlarining yengillashtirilishi, aviaqatnovlar geografiyasining kengayishi, qo’shni davlatlar bilan yaqin hamkorlikning kuchayishi hamda turli ma’muriy to’siqlarning bekor qilinishi, kishilarning yangi taassurotlarga chanqoqligi turizm rivojiga katta turtki berdi.

Turizm sohasini qo’llab quvvatlash uchun QQS imtiyozlari, bojhona afzalliklari va mehmonhonalar qurishga 50 million resurs ajratilishining e’lon qilinishi esa yanada soha rivojlanishi uchun yengillik berishi aniq. Shu davrgacha sohaning islohotlardagi o’zgarishlari respublikamizning tarixiy Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi an’anaviy markazlarga qaratilgan.

Hozirda mamlakatimizda iqlim, tabiiy sharoit, o’ziga xos turli rel’yef shakllariga va landshaft ko’rinishlari hududlarda har bir jihatlardan unumli foydalanib rekreatsiya-turizm sohasini rivojlantirish asosiy maqsadga aylangan. So’nggi yillarda shahar ko’rinishlari tubdan zamonaviy ko’rinishlarga keltirilganligi, eski inshootlar qayta ta’mir qilinishi, viloyatlarda turizm qishloqlarining barpo etilishi ushbu sohada yanada boshqa jihatlarni rivojlantirishga omil bo’lmoqda.

Mavzuning dolzarbligini bir necha omillar bilan izohlash mumkin: *birinchidan*, Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2025-yil 4-dekabr kungi Sirdaryo viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi tashrifi mobaynida berilgan topshiriqlarga asosan Boyovut tumanida sig’imi 100 million kub metr bo’lgan Sultonhovuz suv ombori qurilishi - bunday suv ombor bo’yini yashil makaonga aylantirish loyihalarini ishlab chiqish mumkin, yo’l qurilish inshootlari bo’yicha (Xalqaro ahamiyatdagi yo’llarning 241 km qismi Sirdaryoning 7 ta tumanidan o’tgani servis va logistikani rivojlantirish uchun katta imkoniyat ekanligini hisobga olgan holda) topshiriqlariga binoan Sirdaryo, Sayhunobod, Guliston va Boyovut tumanlarini Bekobod bilan bog’laydigan 74 km li yo‘lni ta’mirlashni boshlash (yo’l bo’yi servis xizmatlarini ko’rsatish shahobchalarini tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi) kabi topshiriqlar atroflicha o’rganib chiqish hamda ilmiy asoslangan holda tashkil etish maqsadga muvofiq. Chunki, bu Sardoba suv ombor to’g’onining buzilishiga o’xshash kabi talofatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim omillardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining turizmni jadal rivojlantirishga qaratilgan farmon va qarorlari, jumladan mintaqalarda turistik infratuzilmani takomillashtirish, “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etish bo‘yicha topshiriqlari mavjud bo‘lib, bu ularning mahalliy darajada amalga oshirilishini o‘rganishni taqozo etadi. ”Yashil” iqtisodiyotga o’tish strategiyasidan maqsad bu orqali ijtimoiy rivojlanishga, issiqhona gazlarining ajratmalari darajasini pasaytirishga, iqlim va ekologiya barqarorligiga imkon beruvchi mustahkam iqtisodiy taraqqiyotga erishishdan iborat.[1]

Ikkinchidan, Sirdaryo viloyati turizm tarmoqlarining sohalari bo’yicha kam rivojlangan hududlardan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda mustaqil turistik mintaqa sifatida deyarli tadqiq qilinmagan — ko‘pincha u Jizzax viloyati bilan birgalikda, Mirzacho‘l genetik-tabiiy majmuasi doirasida ko‘rib chiqiladi. Bu esa viloyatning o‘ziga xos rekreatsion salohiyatini alohida baholash zaruratini kuchaytiradi. Viloyat xalqaro va respublika ahamiyatiga ega eng katta yo’l ustida joylashganligi hududda rekreatsiya resurslarini aniqlash hamda ulardan samarali foydalanish masalalarini atroflicha o’rganish zarur.[3] Mamlakatimiz miqyosida eng katta daryolardan biri Sirdaryo daryosi bo’yi hududlarni obodonlashtirish ulardan kishilarning dam olish va ko’ngilochar maskanlar sifatida foydalanish imkoniyatlarini amalga oshiradigan loyihalar ishlab chiqarishni talab etadi.

Uchinchidan, viloyat qishloq xo’jalik sohasini barpo etish asnosida bunyod etilganligini va bu sohada o’ziga xos o’ringa ega ekanligini inobatga olib hududlarda qishloq xo‘jaligiga bog‘liqlikni kamaytirish va aholi, xususan yoshlar bandligini oshirish nuqtayi

nazaridan turizm-rekreatsiya sohasi muqobil o‘sish manbai bo‘la oladi. Shu sababli infratuzilmadagi muammolarni ilmiy asosda aniqlash amaliy ahamiyatga ega.

Muhokama va natijalar: Sirdaryo viloyatda jami 91 ta turizm obyektlari mavjud bo’lib asosiy maskanlar Guliston shahrida joylashgan. Shuningdek Sardoba, Xavos, Sayxunobod tumanlarida madaniy-tarixiy arxetektura inshootlarini zamonaviy ziyorat turizmni rivojlantirishga moslashtirish ayni muddao bo’lar edi. Yangiyer shaxridagi sanotoriya maskaniga 2 ta Qozog’iston va Tojikiston Respublikalardan tashrif buyuradigan kishilarning salmog’i yildan yilga oshib bormoqda bu esa mamlakatimizda kelib-ketish imkoniyatlarini qulaylashtirish ham o’z ta’sirini o’tkazmoqda. Shuningdek ,viloyatda chegara postlarning ochilishi davlatlar o‘rtasida qadimdan qarindosh urug’chilik rishtalarining mustahkamlanishiga poydevor bo’lmoqda.

O‘rgazilgan tahlil natijalari Sirdaryo viloyati turizm-rekreatsiya infratuzilmasini rivojlantirishda quyidagi asosiy muammolarni aniqlashga imkon berdi:

- Transport-yo’l infratuzilmasining holati - viloyat markazi va tumanlarida yo‘l qoplamasi sifati, jamoat transporti tarmog‘ining rivojlanmaganligi turistik obyektlarga yetib borishni murakkablashtiradi;

- Muhandislik kommunikatsiyalari (gaz, elektr) tarmoqlarining yetarli emasligi - bir qator tumanlarda (Boyovut, Xovos, Oqoltin va b) tabiiy gaz va elektr tarmoqlarini kengaytirish ishlari mablag‘ tanqisligi sababli sekin bormoqda, bu esa mehmonxona va rekreatsiya obyektlari qurilishini cheklaydi;

- Mehmonxona va turistik xizmat ko’rsatish obyektlarining kamligi - mehmonxona, restoran, dam olish maskanlari soni va sifati boshqa viloyatlarga nisbatan past darajada, xususan xalqaro standartlarga javob beradigan obyektlar deyarli yo‘q;

-Rekreatsion resurslardan (Sirdaryo bo’yi, baliqchilik, agro va ekoturizm) foydalanish darajasi to‘liq rivojlanmaganligi - Sirdaryo bo‘yi, baliqchilik havzalari, agroturizm imkoniyatlari (paxtachilik, polizchilik, chorvachilik hududlari) tegishli infratuzilmasiz qolmoqda;

- “Yashil energiya” va ekologik infratuzilmaning sust joriy etilishi - Quyosh panellari va boshqa muqobil energiya manbalarini o‘rnatish rejalari bir qator tumanlarda past bajarilish ko‘rsatkichiga ega, bu ekoturizm obyektlarini barqaror energiya bilan ta’minlashni qiyinlashtiradi;

- Marketing va reklama ishlarining sustligi - viloyatning turistik salohiyati haqida ichki va tashqi bozorlarda ma’lumot yetishmasligi sayyohlar oqimini cheklaydi;

- Investitsiya va davlat-xususiy sheriklik masalalari pastligi - investitsiya va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining sustligi turizm infratuzilmasiga xususiy sarmoya jalb qilish bo‘yicha aniq loyihalar va imtiyozlar tizimi hali yetarlicha shakllanmagan;

-Ilmiy-uslubiy ta’minotning kamligi - Sirdaryo viloyatining rekreatsion-turistik salohiyatini kartalashtirish va zonalashtirish bo‘yicha maxsus tadqiqotlar deyarli olib borilmagan, bu strategik rejalashtirishni yanada murakkablashtiradi.

Aniqlangan muammolarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ular o‘zaro bog‘liq xarakterga ega, masalan, infratuzilma yetishmasligi investitsiya jalb qilishni qiyinlashtiradi, investitsiya yo‘qligi esa xizmat sifatini pasaytiradi va marketing imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli muammolarni yechishda tizimli, kompleks yondashuv talab etiladi — alohida

yo‘nalishlarni emas, balki infratuzilmaning barcha bo‘g‘inlarini bir vaqtda rivojlantirish zarur. Bundan tashqari, viloyatning poytaxtga yaqinligi, qo‘shni Zomin va Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi turistik zonalariga va yaxshi transport-geografik o‘rni (asosiy avtomobil va temir yo‘l magistrallari yaqinida joylashganligi) — hozircha to‘liq ishga solinmagan ustunlik hisoblanadi. Bu omillardan foydalangan holda, kunlik yoki qisqa muddatli (weekend) turizm formatlarini rivojlantirish istiqbolli yo‘nalish bo‘lishi imkoniyati mavjud.

Xulosa: O‘tkazilgan tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Sirdaryo viloyati tabiiy-geografik joylashuvi va resurslari jihatidan turizm-rekreatsiya sohasini rivojlantirish uchun muayyan salohiyatga ega, biroq bu salohiyat hozirgacha zamonaviy infratuzilma bilan yetarlicha qo‘llab-quvvatlanmagan. Asosiy muammolar transport, muhandislik kommunikatsiyalari, xizmat ko‘rsatish obyektlari, marketing va investitsiya jalb qilish sohalarida to‘plangan. Muammolarni bartaraf etish uchun muayyan chora-tadbirlar taklif etiladi: viloyat turistik infratuzilmasini rivojlantirishning yagona yo‘l xaritasini ishlab chiqish, muhandislik tarmoqlarini kengaytirish bo‘yicha davlat dasturlarini kuchaytirish, xususiy sarmoyadorlar uchun soliq va bojxona imtiyozlari tizimini joriy etish, Sirdaryo bo‘yi va qishloq hududlarida agro va ekoturizm klasterlarini shakllantirish, viloyat turistik salohiyatini targ‘ib qilish bo‘yicha maxsus marketing strategiyasini ishlab chiqish, geografik tadqiqotlarda Sirdaryo viloyati rekreatsion-turistik salohiyatini geografik axborot tizimlari (GAT) yordamida kartalashtirish, hududlarni turistik zonalarga ajratish va har bir zona uchun rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish dolzarb yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2030-yillar davrida O’zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o’tish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son qarori.

2.Ibodullayev N.E. “O’zbekistonning turistik resurslari” ma’ruzalar matni. Samarqand, SamISI -2008

3. Nig’matov N, Yuldashov A, Qarshiboyeva L, Tobirov O., Turizm va uni Sirdaryo viloyatida rivojlantirishning geografik jihatlari. Monografiya. Guliston: Navro’z. 2021.

4. Sirdaryo viloyati turizm boshqarmasi va statistika boshqarmalari ma’lumotlari. Milliy statistikasi qo’mitasi.

FARG‘ONA VODIYSI TABIIY REKREATSIYA RESURSLARINI GEOAXBOROT TIZIMLARI VA KO‘P MEZONLI TAHLIL ASOSIDA BAHOLASH METODIKASI

Tobirov Odiljon Qobiljon o‘g‘li
geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Qo‘qon davlat universiteti Geografiya va iqtisodiyot kafedrasi mudiri
tobirovodiljon4@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada Farg‘ona vodiysi tabiiy rekreatsiya resurslarini geoaxborot tizimlari (GAT) va ko‘p mezonli qarorlar tahlili asosida baholashning metodik yondashuvi asoslangan. Statistik tahlil vodiyning respublika rekreatsion-sog‘lomlashtirish infratuzilmasidagi ulushi (ixtisoslashtirilgan joylashtirish ob’ektlarining 21,2 foizi) bilan turistik firmalar xizmatidan foydalanganlar ulushi (0,8 foiz) o‘rtasidagi keskin nomutanosiblikni ko‘rsatdi. Sakkiz mezonli baholash tizimi, analitik iyerarxiya usuli (AHP) yordamida mezon vaznlarini aniqlash va rekreatsion salohiyat indeksini (RSI) hisoblash algoritmi ishlab chiqilgan. Metodika rekreatsion rayonlashtirish, turistik marshrutlarni loyihalash va barqaror turizmni rejalashtirishda qo‘llanilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *tabiiy rekreatsiya resurslari, geoaxborot tizimlari, ko‘p mezonli qarorlar tahlili, analitik iyerarxiya usuli, rekreatsion salohiyat indeksi, Farg‘ona vodiysi, barqaror turizm, geoekologik cheklovlar.*